



CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION

Erkaboyeva Nigora Shermatovna
Qdpi Pedagogy Named After Muqimi
and Dean of the Faculty of Psychology P.F.D.

Akbarov Sardor Sodiqjon O'g'li
Associate Professor Qdpi Special Pedagogy
Named After Muqimi 1st Year Student of Speech Therapy

Abstract

In accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 29, 2019 "On approval of the concept of development of the Public Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030" No. PF-5712, development of inclusive education in Uzbekistan, special in order to improve the system of education and upbringing of children with educational needs and to improve the quality of educational services provided to them.

INKLYUZIV TA'LIMNING SHART-SHAROITLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ualrga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida

1. 2020 – 2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 1-ilovaga muvofiq;

2. 2020 – 2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasi rahbar, pedagog va tibbiyot xodimlarining lavozim maoshlari va bazaviy tarif stavkalariga 100 foiz miqdorda qo'shimcha to'lov saqlab qolindi. Nogironlarning boshqa barcha fuqarolar bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklanishlarni bartaraf etish, to'la qonli hayot kechirishlariga, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy turmushida





faol qatnashishlariga, shuningdek, o'zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart - sharoitlar yaratish davlatimiz insonparvarlik siyosatining asosiy mazmunini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish, mazkur toifa bolalarni har tomonlama kompleks rivojlantirishning innovatsion va axborot-kommunikasion texnologiyalarini amaliyotga joriy etish"¹ ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Natijada, mamlakatimizda sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalarni har tomonlama sifatli ta'lim bilan ta'minlash, mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun-qoidalarga, tamoyillarga va asoslarga tayanishi lozim. Bugungi kunda O'zbekistonda 250000ga yaqin nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta'lim olish ehtiyojiga ega. Shuni inobatga olgan holda respublikamizda nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalari faoliyat yuritadi. Shu bilan bir qatorda butun dunyo mamlakatlari, jumladan O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limni amalga oshirish bo'yicha turli qaror va qonunlar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda respublika bo'yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda (keyingi o'rinlarda — ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari) 21,2 ming nafar, 21 ta sanatoriy turidagi maktab-internatlarda 6,1 ming nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan 13,3 ming nafar o'quvchilar uyda yakka tartibda o'qitiladi.

2014 — 2016 yillarda Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda «O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim» loyihasi amalga oshirildi. Loyiha doirasida:

- respublikaning 5 ta hududida tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi;
- 150 nafardan ortiq tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya va 1,3 ming nafardan ortiq pedagog xodimlar inklyuziv ta'lim xizmatlariga o'qitildi;
- pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ta'lim muassasalarining o'quv rejalariga ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etishga doir 3 ta o'qitish moduli kiritildi;
- 2 ming nafardan ortiq alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar va ularning otalariga inklyuziv ta'lim xizmatlari tashkil etildi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori



Toshkent, Samarqand, Namangan, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida 5 ta tajriba-resurs markazi hamda 15 ta tajriba maktablari tashkil etilib, ularga 800 nafardan ortiq bolalar qamrab olindi.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);

nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojida sustlik, duduqlanish);

tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomieli, miopatiya, osteomieli, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi — pakanalik);

aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;

aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji);

intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;

hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

intellektual rivojlanishi saqlanib qolingani, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1 martadan oshmagan paytda).

Quyidagi Toifadagi Bolalar Qabul Qilinmaydi

aqli o'ta zaif bolalar (imbitsil, idiotiya darajasidagi oligofreniya);

xulq-atvorida og'ir buzilishlar, hissiy-irodaviy sohasida (organik) nuqsonlari bo'lgan bolalar;

tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan, mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan va o'z-o'ziga xizmat ko'rsata olmaydigan bolalar;

ko'r-kar-soqov bolalar;

tez-tez takrorlanadigan epileptik tutqanoqdan aziyat chekadigan (epileptik demensiya, kunduzgi va tungi vaqtlarda tutqanoq'i tez-tez takrorlanadigan) bolalar;



markaziy asab tizimiga shikast yetganligi tufayli siydik va najasini ushlab turolmaydigan bolalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib, nogiron bolalarning ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta'lim turli xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'lim turini amalga oshiradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"ni., Toshkent., 2020 yil
2. Shomaxmudova R. «Maxsus va inklyuziv ta'lim» o'quv metodik qo'llanma.
3. S.S.Akbarov. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishning huquqiy asoslari. «Inklyuziv ta'lim: strategiya, fan, amaliyot va texnologiyalar» xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. 60 bet. 10-dekabr, 2021-y.
4. U.Fayziyeva, S. Mo'minov. "Farzandingizning huquqi himoyasi" metodik qo'llanma. Toshkent-2022 yil.

